

HOMILADOR AYOLLARDA VITAMIN D TANQISLIGINING AKUSHERLIK VA PERINATAL ASORATLARGA TA'SIRI

Yuldasheva D.Y.

Ergashova M.E.

Toshkent davlat tibbiyot universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22143282>

Dolzarbligi. Vitamin D organizmda kalsiy-fosfor almashinuvini boshqarish bilan bir qatorda immun tizimi, hujayralar proliferatsiyasi va differensiallanishi, yallig'lanish jarayonlari hamda reproduktiv tizim faoliyatida muhim biologik ahamiyatga ega. So'ngi yillarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda homiladorlik davrida vitamin D tanqisligi ona va homila salomatligiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan muhim omillardan biri sifatida qaralmoqda.

Homilador ayollarda 25(OH)D miqdorining pasayishi preeklamsiya, gestatsion arterial gipertenziya, gestatsion qandli diabet, muddatidan oldin tug'ruq hamda ayrim salbiy perinatal natijalar bilan bog'liqligi haqida ma'lumotlar mavjud. O'zbekiston sharoitida homilador ayollarda vitamin D tanqisligining tarqalishi va uning akusherlik hamda perinatal asoratlarga bilan bog'liqligini kompleks baholash dolzarb ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqot maqsadi. O'zbekiston sharoitida homilador ayollarda vitamin D tanqisligining tarqalishi va uning akusherlik hamda perinatal asoratlarga bilan bog'liqligini baholash.

Tadqiqot materiallari va usullari. Tadqiqotda homilador ayollarni prospektiv kuzatish asosida klinik va laborator tekshiruvlar o'tkazish rejalashtiriladi. Qon zardobida 25 (OH)D miqdori aniqlanib, homilador ayollar vitamin D bilan ta'minlanganlik darajasiga ko'ra guruhlariga ajratiladi.

Natijalar. Akusherlik natijalari sifatida gestatsion arterial gipertenziya, preeklamsiya, gestatsion qandli diabet, muddatidan oldin tug'ruq xavfi va boshqa homiladorlik asoratlari tahlil qilinadi. Perinatal natijalarni baholashda chaqaloqlar vazni, homiladorlik muddati, Apgar shkalasi bo'yicha holati va neonatal davrning ayrim ko'rsatkichlari hisobga olinadi. Olingan ma'lumotlarga statistik ishlov berish orqali vitamin D darajasi va o'rganilayotgan akusherlik hamda perinatal natijalar o'rtasida bog'liqlik baholanadi.

Xulosa. Homiladorlik davrida vitamin D tanqisligi ona va homila salomatligiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan dolzarb metabolik holatlardan biridir. Mazkur tadqiqot natijalari homiladorlik davrida vitamin D bilan ta'minlanganlik holatini baholash va salbiy akusherlik hamda perinatal natijalarning oldini olishga qaratilgan yondashuvlarni takomillashtirishga xizmat qiladi.